

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi

KURS ISHI

Mavzu: OILADA SOG'LOM BOLA TARBIYASI

Ilmiy rahbar

**I.Qurbonov -
o'qituvchi**

Bajardi :

**UMUROV AXTAMNING
Pedagogika va psixologiya ta'lim
yo'nalishi 3-kurs talabasi**

Buxoro - 2016

OILADA SOG`LOM BOLA TARBIYASI

KIRISH

1.OILADA SOG`LOM BOLA TARBIYASINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2. OILADA JISMONIY MASHQLARNI BAJARISH SHAKLLARI

3. XULOSA

4.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor"¹.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz oilaning e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir rolini e'tirof etib, "Oila qachon baxtli bo'ladi? Ayol baxtli bo'lsa! Ayol qachon baxtli bo'ladi? Farzandlari sog'-salomat bo'lsa! Buning uchun oilada sog'lom muhit shakllanishi, avvalo, ota-ona sport bilan shug'ullanishi kerak" deb ta'kidlaydi. Shu sababli, oila hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'analari, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tadbiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma'rifatlilik an'analari kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarni zamon talablari asosida qayta o'rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan yoshlarimizda, ayniqsa, o'smirlik va o'spirinlik yoshidagi farzandlarimizda e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirchan vositalarini ishlab chiqish jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishni ta'minlaydigan omillardandir. Bugungi kunda oiladay ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy dunyoqarashni hosil qilish **dolzarb masalalardan** biridir.

O'zbekiston istiqbolga erishgach, asriy madaniy va ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi, har bir fuqaro ongida kelajagi buyuk yurti

¹ Islom Karimov. Oila farovonligi – millat farovonligi. – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining olti yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisdagi tabrik so'zi.\\ 1997-yil 5-dekabr. Karimov I. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida: T.6 – T.: O'zbekiston, 1998. – 400 b.

borligini anglash, Vatanga cheksiz mehru-muhabbat, sadoqat va o'z mehnatidan manfaatdorlik, shu orqali oila hamda nikohning muqaddasligi g'oyasini singdirish uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'la boshladi. Mustaqil davlat amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlari, tub islohotlari kundan kunga Vatanimizning buyuk kelajagiga ishonch, yurt tinchligi, farovonligiga aloqador muqaddas tushunchalarning mohiyatini anglash, ularni fuqarolar ongiga, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbiga singdirishda oila institutining o'rni va ahamiyati hamda oila qadriyatlariga nisbatan o'smirlardagi e'tiqodni tarbiyalovchi shart-sharoitlarni o'rganish vazifasi dolzarb muammo sifatida kun tartibida turibdi.

Har qanday jamiyatda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizda ham har bir shaxs va xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, yurt tinchligi va turmush farovonligini ta'minlovchi ilg'or g'oyalar borki, ular har bir fuqaro tomonidan anglanganlik darajasi ana shu jamiyatning rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi. Shu ma'noda shaxsdagi axloqiylik va e'tiqodlilikni ana shunday sog'lom dunyoqarashni, teran fikrlashni ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omil uning mohiyatini ilk bolalikdan oila muhitida, undagi qadriyatlar doirasida, ota va onaning obro'si, bilimdonligi, o'rnak bo'luvchi shaxs sifatidagi ta'sirida ular ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Chunki oila - asrlar mobaynida xalq an'nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.Karimov oila va undagi an'analarga, milliy qadriyatlarimizga alohida e'tibor berib, oilaning mustahkam bo'lishi, unda yosh avlod tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, eng avvalo, ulardagi mustaqil fikrlash, sog'lom e'tiqod va teran dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Chunonchi, shunday muhitda tarkib topadigan qarashlar tizimini millatning mafkurasi, deb ta'riflaydilar: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida

o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman"². Aynan mustaqillik yillarida yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosi ko'plab nazariy va empirik izlanishlar predmetiga aylanmoqda. Zero, bunday yondashuv o'tmish allomalarning falsafiy-g'oyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan o'g'itlari ma'no-mohiyatiga mosdir. Sharqning buyuk mutafakkirlari sanalmish Ahmad al-Farg'oniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab allomalar qarashlarida bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy omil sifatida oila, ota-onalarning dunyoqarashi, tarbiya uslublari va bunda jamiyat e'tirof etgan normalarning oila qadriyatlariga muvofiqligi tamoyili o'z ifodasini topgan. Alohida ta'kidlash joizki, oxirgi yillarda tarix va madaniyatshunoslik, ma'naviyat va axloqshunoslik, adabiyot va dinshunoslik, falsafa va pedagogika yo'nalishlarida chop etilayotgan qator risola va kitoblarda, ilmiy va ommabop maqolalarda ham bu masalaning turli jihatlari yoritilmoqda. Biroq, yuqorida ta'kidlangan oilaga tegishli an'analarga nisbatan shaxs e'tiqodliligining har bir jamiyat a'zosining ehtiyojiga aylantirilishiga imkon beruvchi ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini o'rganish o'z yechimini kutib turibdi.

Oilaga tegishli bo'lgan e'tiqodlilik oilaparvarlik bilan ham bog'liq bo'lib, bu tushuncha - shaxsdagi ijtimoiy tasavvurlar majmuidagi oilaning an'analari, udumlari, rasm-rusmlari hamda qadriyatlariga nisbatan ijobiy ijtimoiy ustanovkani ifodalaydi. Empirik jihatdan oilaparvarlik o'smirlardagi oilaga nisbatan mutanosib, ijobiy ustanovkada, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarida, ota-ona qadrlagan udum va an'analarga nisbatan e'tiqodda, oilaviy burch, mas'uliyat, oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorgarlikda ifodalanadi.

2013 yil 6 dekabr. Soat 17:20.

² Karimov I. Jamiyatimizning mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. -T.: O'zbekiston, 7- jild. 89-bet.

“O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyidan – O‘zbekistonga, jahonga xayrli, ezgu, ibratli xushxabar taraldi. Prezident Islom Karimov kirib kelayotgan yangi – 2014 yilni mamlakatimizda **“Sog‘lom bola yili”** deb e‘lon qilishni taklif etdi.

Bu xushxabar O‘zbekistonda sog‘lom avlod masalasi bir yoki bir necha yillik emas, balki davlatimiz, jamiyatimizning doimiy diqqat markazida ekanligining yana bir oliy tasdig‘i bo‘ldi. “Sog‘lom bola yili” iborasi eng ezgu orzu-niyatlarimizning ramzi bo‘lib, tillarda yangrab, dillarni yayrata boshladi.

“Sog‘lom” so‘zi:

Dard-kasaldan xoli, sog‘;

Sog‘liqni saqlash talablariga to‘la javob beradigan;

beg‘ubor, toza, sof;

Zararli ta’sirdan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan xoli;

toza, pok;

Ruhiy jihatdan shikast yetmagan, raso;

G‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy jihatdan toza, pok, degan ma’nolarni beradi³.

“Bola” esa:

Yangi tug‘ilgan, hali ko‘krakdan, ona bag‘ridan ajratilmagan go‘dak;

chaqaloq;

Hali yosh, voyaga etmagan odam;

Farzand, o‘g‘il-qiz, zurriyod;

Yoshi kattalarning yoshlarga murojaat shakli;

Homila, qorindagi gumona ekanligi ma’lum bo‘ladi.

“Bola” so‘zi voyaga yetgan yigit-qizlarga ham ishlatiladi.

Askar bola. Bo‘z bola. Kelin bola. Kuyov bola...⁴

Xullas, lug‘aviy ma’noda sog‘lom bola bu – hali yosh, voyaga yetmagan, beg‘ubor, sof, zararli ta’sirlardan, salbiy xislat, illat va shu kabilardan xoli o‘g‘il-qiz ekani ma’lum bo‘ladi.

³ Sog‘lom. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-tom. 563-b.

⁴ Bola. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-tom, 305-306 b.b.

OILADA SOG'LOM BOLA TARBIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan qator umummilliy dasturlar, birinchi navbatda "Sog'lom ona-sog'lom bola" dasturi amalga oshirildi. Farzandlarimiz va xalqimiz baxti uchun, kelajagimiz uchun qilinayotgan bu ezgu ishlar izchillik bilan davom etib, tobora kengayib borayotganligi, yuksak samaralar berayotgani quvonarlidir.

Bolani sog'lom, mehnatsevar, jamiyat uchun foydali fuqaro qilib o'stirish- otalardan ko'p yillar davomida jismoniy va ma'naviy kuch-g'ayrat sarflashni talab etadigan murakkab ishdir. Ota va ona bolalarni tarbiyalash, bo'lajak fuqaroni tarkib toptirish uchun jamiyat va davlat oldida javobgardirlar. Bolalarni oilada tarbiyalash jarayonini ajralib qolgan deb tasavvur qilish mumkin emas, u maktabda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish jarayoni bilan chambarchas bog'langan, tarbiyaga tizimli yondashish komponentlaridan biridir. Bunda oilada rahbarlik roli yuklatiladi.

Oila-jamiyatning asosiy bo'g'inidir, u shaxsning tarbiyasiga asos soladi. Oilada bola ilk bor axloq normalarini birgalikdagi mehnat malakalarini o'zlashtiradi, bolalarning hayotiy rejalari axloqiy ideallari oilada tarkib topadi, Vatanga bo'lgan muhabbat tarbiyalanadi. Bolalar oilada faqat o'z yaqinlariga taqlid qilib qolmaydilar, balki ularning ijtimoiy va axloqiy ko'rsatmalariga qarab ish tutadilar. Ota-onalarning axloqiy yetuklik darajasi, ularning ideallari, ijtimoiy muomala tajribasi yosh avlodning rivojlanishida ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Oila a'zolarining munosabatlari o'zaro muhabbat, bir-biriga hurmat, har bir ishda qo'llab-quvvatlash asosiga quriladi. Bolalarning ota, ona bilan munosabati, aloqasi bolalarning hayotiy tajribasini boyitadi, ularning axloq madaniyatiga erishishiga ham yordam beradi.

Agar oilada salbiy munosabatlar tarkib topgan bo'lsa, bolalarni tarbiyalashda qiyinchiliklar vujudga keladi. Bu esa ko'pincha tarbiyasi qiyin bolalarning paydo

bo'lishiga, qonunbuzarlikka olib keladi. Bolalarni oilada tarbiyalash vazifalari juda rang-barang va umuman yosh avlodni har tomonlama, uyg'un holda rivojlantirishga qaratilgan.

Bola hayotining dastlabki yillarida ota-onalar uning jismoniy rivojlanishi haqida g'amho'rlik qiladilar, bolaning oiladagi ovqatlanish rejimini tashkil etishga jiddiy e'tibor beradilar. Bolaning hayoti va rivojlanishi uchun kerakli sanitariya-gigiyena sharoitlarini ta'minlaydilar. Bolaning oilada o'sishi va rivojlanishi bilan birga ota-onalar, bolaning jismoniy rivojlanishiga g'amho'rlik qilishdan tashqari, aqliy tarbiyaga e'tibor beradilar. Bolalarning bilish faolligini rivojlantiradilar.

Yosh avlodning mehnat tarbiyasi vazifalarini bajarishda oila katta ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarini tizimli ravishda va maqsadga muvofiq uy-ro'zgor ishlariga jalb qiladilar, ularni o'z-o'ziga hizmat ko'rsatishga, uyda qo'lidan keladigan ishlarni bajarishga o'rgatadilar. Ota-onalar oilada tashkil etiladigan ijtimoiy-foydali ishlarda o'z farzandining ishtirok etishi bilan doimo qiziqib boradilar. Bolalar ota-onalarining ishlab chiqarishdagi mehnati, ularning ishdagi muvaffaqiyati va hafagarchiliklari ham aynan oila davrasida bilib oladilar. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyati ham ko'pincha oilada mehnat tarbiyasining qanday tashkil etilganiga bog'liq bo'ladi.

Bolalarni oilada tarbiyalashning aсосiy vazifalaridan biri **axloqiy tarbiyadir**. Oila- bolalarning kattalar, aka-ukalar, opa- singillar bilan aloqasining dastlabki maktabidir. Oilada bola kattalarni hurmat -qilish, keksalar va kasallar haqida g'amho'rlik qilish, bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatishni o'rganadi. Birgalikda bajariladigan uy ishlarida, yaqin kishilar bilan bo'lgan munosabat natijasida bolalarda burch, o'zaro yordam, mas'uliyat hissi tarkib topadi. Ota-onalarning shaxsiy namunasi, ularning o'zaro hurmati, bir-birlari va bolalar haqida g'amho'rlik qilishi, muomalalarida noziklik va mehribonlikning namoyon bo'lishi oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning eng yaxshi vositasidir. Agar bolalar oilada sof, go'zal, axloqiy munosabatlarni ko'rsalar, katta bo'lgach, o'zlari ham shunday yaxshi munosabatlar ko'rsatishga intiladilar.

Oila bolalarni **estetik tarbiyalash** uchun ham qulay sharoitlarga ega. Estetik tuyg'u, qarash va didlar bolalarda kattalar sovg'a qilgan dastlabki o'yinchoqlar bilan tanishgandayoq shakllana boshlaydi. Keyinchalik bola go'zal narsalarni kitoblar, kompyuter va televizordagi mahsus eshshitirish va ko'rsatuvlar orqali bilib oladi. Bola ota-onasining kitob o'qib berishini tinglar ekan, maktabgacha tarbiya yoshidayoq ona tilining go'zalligini bilib oladi; kitobning bezatilishini kuzatganida grafika, rangtasvir bilan tanishadi. Uydagi sharoit: toza va shinam honalar, gullar va hokazolar oilada bolaning estetik tarbiyalanishida katta rol o'yiaydi. Ota-onalar bolalarni faqat uydagi qulayliklardan foydalanishga o'rgatibgina qolmaydilar, balki bolalarni ham qulaylik yaratishga, honalarni saranjom-sarishta tutish ishlariga jalb qiladilar. Tabiat oilada bolalarni estetik tarbiyalashning eng muhim vositalaridan biridir. Ota-onalar maktabga qaraganda ko'proq bolalar bilan dala-dashtlar va anhor bo'ylariga oilaviy sayrlar tashkil qilishlari mumkin. Tabiat qo'yniga chiqish bolaning ongida o'chmas iz qoldiradi. Bolalikda tabiatga qilingan sayru-sayohatlardan olingan taassurotlar butun umr yodida saqlanib qoladi. Bola tabiat bilan jonli munosabat davomida qushlar sayrash, ariq suvlari shildirashini eshitayotganida, daraxtlar yashilligini kuzatayotganida paydo bo'ladigan shodliklari bilan bir vaqtda unda estetik tuyg'ular tarbiyalanib boradi.

Bolani oilada tarbiyalash vazifalarini hal qila borib, ota- onalar doimo o'qituvchiga maslahat so'rab murojaat qiladilar, maktab va jamoatchilikning yordami bilan bola tarbiyasidagi yutuq va kamchiliklarni ko'radilar hamda maktab bilan birgalikda bolani oilada tarbiyalash dasturini belgilaydilar.

Oila bolalarni to'g'ri tarbiyalash uchun katta imkoniyatlarga ega. Ammo bu imkoniyatlar hamma vaqt ham mohirona amalga oshirilmaydi.

Avvalo ota-onalar o'z bolalarining ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishlari, o'z bolasini o'rgana bilishi kerak. Bolalarni oilada o'rganishning asosiy yo'li uyda, o'rtoqlari davrasida ularning xulqini, maktabdagi o'qish va sinfdan tashqari ishlarga munosabatini doimiy kuzatishdir. Ko'pincha shunday ota-onalar uchraydiki, ular o'z e'tiborini ko'proq yo bolalarining kamchiliklariga

qaratadilar, yo bolaga uning yutuqlari haqida gapiradilar. Oilada bolalarga bunday yondoshish ularniig tarbiyasida hatolikka olib keladi.

Ba'zan ota-onalarning bolalari so'zga kirmasligidan shikoyat qilishini eshitib qolamiz. Bolalarning so'zga kirmasligi - ota-onalarining bolalari oldida obro'yi yo'qligidan dalolatdir . Oilada ota-onalar obro'yi nima va u qanday yaratiladi?

Ota-onalar va bolalarning o'zaro muomala-munosabatlari o'z me'yorida bo'lganda, ular o'z ota-onalarini hurmat qilib va ularga ishonganlarida, ularning irodasiga, ularning talablari va ko'rsatmalariga itoat etganlaridagina obro'li bo'lishlarini bilamiz.

Ota-onalar obro'sining sohta asoslari bo'ysundirish obro'yi, takabburlik, sevish, biror narsa bilan o'ziga og'dirish va boshqa obro'lardan iborat. Ba'zi oilalarda bolani biror narsa bilan o'ziga og'dirish obro'si ustunlik qiladi. Buni ko'proq ota-onalar o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lib turadigan oilalarda uchratish mumkin. Bolani o'z tomoniga og'dirib olish maqsadida (ba'zan bir-biriga o'chakishib) ota yoki ona unga qimmatbaho sovg'alar beradilar. Ko'pincha bolaga: «So'zga kirsang, tomoshalarga boramiz», «O'quv yilini uchsiz tamomlasang-velosiped olib beramiz» qabilida va'da beradilar. Bu bilan ota-onalarning o'zlari bola xulqini buzadilar.

Agar bolalar o'zlarining ota-onalari misolida haqiqiy mehnatchini, o'z ishini sevadigan, doimo o'z malakasini oshirib boradigan, o'z shaxsiy rejalarini ikkinchi, ammo muassasa yoki korhona yutuqlarini birinchi o'ringa qo'yadigan jamoatchilarni ko'rsa, o'z bolalarining ko'z o'ngida ota-onalarning obro'si ortib boradi. Oiladagi normal o'zaro munosabatlar, kattalarning kichiklarga, o'zlarining keksa ota-onalariga munosabatlari bolalar tarbiyasiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.. Ota-onalar obro'si uchun bolalar bilan o'zaro munosabatlar tizimini qaror toptirish muhimdir. Ota onalar o'z bolalari misolida o'sayotgan shaxsni ko'rishlari, *unga* ishonishlari, unga yordamchi sifatida qarashlari, bolalarni har hil qiyinchiliklarga uchraganida (o'yin, mehnat, darslarni bajarish vaqtida) unga

yordamga kelishlari, u qanday shakllanib borayotganligidan bohabar bo'lishlari zarur.

Aniq **kun tartib**ining bo'lishi oilada bolani muvaffaqiyatli tarbiyalash eng muhim xususiyatlaridan biridir. U bolaning butun kun davomidagi barcha kun tartibi (uxlash, ertalabki badan tarbiya va gigiyena, sog'lomlashtirish va dam olishning barcha turlariga sarflanadigan vaqt) ni o'z ichiga oladi.

Kun tartibi tuzishda bolaning yoshi va sog'lig'ini hisobga olish kerak. Birinchi sinf o'quvchisi 11,5 soat; 3-4-sinf o'quvchilari 10-10,5 soat uxlashi kerak. Uxlashga ajratiladigan vaqtga jiddiy rioya qilinishi, bolaning yaxshi uxlashi haqida, uxlash va turish muddatiga rioya qilish, bolaning uxlash vaqtida tinchlik bo'lishi haqida g'amho'rlik qilish kerak. Uxlab turgandan keyin bolani badan tarbiya qilishga va keyin chipiqtiruvchi tadbirlarni bajarishga o'rgatish zarur. Gimnastika bola organizmini faol holatga olib kiradi, iroda va xarakterini tarbiyalashga yordam beradi.

Bolaning **ovqatlanishini** ham tartibga keltirish kerak. Ovqat mazali, kaloriyasi yetarli darajada bo'lishi, ovqatlanish vaqti esa doimiy bo'lishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun 6-7 marta, ertalab issiq nonushta, maktabda ikkinchi yengil nonushta, tushlik, kech tushki ovqat va soat 19 dan kechikmay yengil kechki ovqat tavsiya etiladi. Ovqatlanishning bir tekisligi va doimo bir vaqtda ovqatlanishga rioya qilinishi ovqat hazm qilish organlari ishida bir maromni saqlashga yordam beradi.

Kun davomida mehnat uchun ajratiladigan vaqt alohida tartibga keltirishni talab etadi. Kichik maktab o'quvchisi o'quv mehnati, uy-ro'zg'or ishlari, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va ijtimoiy ish bilan shug'ullanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar ishlab chiqarish mehnatiga katta yoshdagilarga nisbatan kamroq jalb qilinadi. Ba'zi o'quvchilar yana musiqa maktabiga, har xil to'garaklar va sport to'garaklariga qatnashadilar.

Ota-onalar oldida kun davomida bolaning ishini qanday qilib oqilona tashkil etish, faoliyatining barcha turlariga vaqtni qanday taqsimlash kerak? degan savol

paydo bo'ladi. Vaqtni taqsimlashda oliy nerv faoliyati fiziologiyasining qonunlarini hisobga olish zarur.

Masalan, aqliy mehnat bilan shug'ullanish uchun eng qulay vaqt ertalabki soatlardir. Ish qobiliyatining ikkinchi bor ko'tarilishi soat 15—17 lar orasiga to'g'ri keladi. Agar bola kunning birinchi yarmida o'qiydigan bo'lsa, unda darslarini soat 15 dan 17 gacha, agar kunning ikkinchi yarmida o'qiydigan bo'lsa, uy vazifalarini soat 9 dan 11 gacha bo'lgan vaqtda bajargani ma'qul. Bunda mashg'ulotlarning boshlanishi va tugashini qat'iy vaqt bilan belgilash zarur.

Qat'iy vaqt bolada ma'lum soatda ishlash odatini hosil qilishga yordam beradi. Ma'lum sinfda o'qiydigan bolalar uchun uy mashg'ulotlarining davom etishi o'rta umumiy ta'lim maktabining nizomida belgilab qo'yilgan: 1-sinf o'quvchilari uchun 1 soatgacha; 2- sinf—1,5 soat; 3-4-sinf, 2 soatgacha, shuningdek bola faoliyatining xarakteri (ish sur'atining tezligi, sekinligi) ham hisobga olinadi.

Musiqqa bilan shug'ullanish, to'garaklar, sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar bolaning o'quv mehnati bilan almashinib turishi kerak. Olimlar sport bilan shug'ullanishni maktabdagi mashg'ulotlar tugashi bilanoq o'tkazishni tavsiya qiladilar-bu bir vaqtning o'zida o'quv mashg'ulotlaridan keyingi dam olish ham hisoblanadi. O'quv va musiqa mashg'ulotlari, to'garaklardagi ishlar oralig'idagi tanaffuslarda uy-ro'zg'or ishlariga oid topshiriqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Boladan kundalik doimiy tirishqoqlikni talab qilishi uchun bunday ishlarni uzoq muddatga (masalan, o'quv yiliga) beradilar. Doimiy topshiriqlar ishda g'ayratlilik va sinchkovlikni, topshirilgan ish uchun javobgarlik ni tarbiyalashga yordam beradi. Bolaning yoshi ortib borishiga qarab topshiriqlar murakkablashib boradi.

Kun tartibida belgilangan ishlarni bajarishda vaqtni bolaning o'zi taqsimlab va nazorat qila olishga ko'nikib qolganida kun tartibi tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Bunda ota-onalar bolaning topshiriqlarni bajarish sifatini odob bilan nazorat qilib boradilar.

OILADA JISMONIY MASHQLARNI BAJARISH SHAKLLARI

Butun oila hayotining aniq tartibi, katta yoshdagi oila a'zolarining bolaga qo'yadigan talablarida birlik bo'lishi kun tartibini bajarishda bola uchun katta turtki bo'ladi.

Buning uchun biz oilada turli yoshdagi bolalarning kun tartibini tavsiya qilamiz. Kun tartibi bola hayotini to'g'ri yo'lga qo'yadigan va doimo bajarilishi lozim bo'lgan qoidadir. To'g'ri tashkil etilgan kun tartibi bolada tetik va yaxshi kayfiyat, o'qish va ijodga, turli o'yinlar va mashg'ulotlarga qiziqish uyg'otadi, uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kun tartibini tuzishda quyidagi holatlarga rioya qilish lozim.

1. Turli hil faoliyatlar davomiyligini, ularning navbatlashuvi va vaqtini aniqlash.
2. Dam olishni iloji boricha ochiq havoda tashkil etish.
3. O'z vaqtida sifatli ovqatlanish.
4. Tinch va osuda uyqu.

3 -yoshgacha bo'lgan bolalarning kun tartibi

3 yoshgacha bo'lgan davrida bolalar tez o'sib rivojlanadilar, ularning fiziologiyasi talab va ehtiyojlari hamda oliy nerv xususiyatlari ham o'zgarib turadi. Shuning uchun ularning kundalik rejimi yoshlariga qarab o'zgaradi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning oliy nerv faoliyatida qo'zg'alish jarayonlari tormozlanishga nisbatan ustun turadi. Bolaga biron-bir harakatni qilmaslikni uqtirishdan ko'ra, boshqa bir harakatni o'rgatish ancha osondir. Uzoq vaqt davom etadigan tormozlanish bu yoshdagi bolalar uchun xos emas. Bu davrda ijobiy shartli reflekslar tezroq hosil bo'lishi va ularni o'zgartirish ancha mushkulligi aniqlangan. Masalan, mustahkam o'rnatilgan bir vaqtda hatti-harakatning stereotipini o'zgartirish mushkul.

Tashqi muhit sharoitlarining, odatdagi turmush tartibining keskin o'zgarishi bola xulq-atvori va uyqusining buzilishi, ovqat yemaslik kabi inijqliklar bilan ifodalanadigan oliy nerv faoliyatining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Bunday holatlar ko'pincha, bolalar muassasasiga qatnashning birinchi kunlari kuzatiladi va 2—3 hafta davom etishi mumkin.

3 yoshgacha bo'lgan bolalarning kun tartibini tuzayotganda ularning nerv tizimida kechuvchi jarayonlarning sustligi va nisbatan kam harakatliligini unutmaslik lozim. Bu bir faoliyatdan-boshqa faoliyatga o'tishning qiyinligi bilan ifodalanadi.

Bola birinchi talab bo'yicha qilayotgan ishni to'xtatib, boshqa harakatga o'ta olmaydi. Bolaning hatti-harakatlari o'zining tabiiy talablari- ochlikni bartaraf etish, uyqu va uyg'oqlik chog'idagi turli ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liqdir.

Bolaning kun tartibi to'g'ri tashkil etilgan holda- birinchi yilning oxiriga kelib, uyqu va uyg'oqlik holatlarining ritmi izga tushadi. Miya po'stlog'i funksiyalarining takomillashib borishi bilan uyg'oqlik holati ekstraretseptorlar-tashqi ta'sirot retseptorlari orqali keluvchi ta'sirotlar hisobiga ko'payib va mustahkamlanib boradi. Bola tovushlarga quloq soladi, atrofini o'rab turgan narsalarga tikilib qaraydi. Uning faol holatini saqlab turish uchun his-hayajonli ta'sirotlar (kattalarning bola bilan so'zlashishlari, bolaning holatini o'zgartirish, uni maneja qo'yish va boshqalar) zarur.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar ko'proq ochik havoda bo'lishlari lozim.

3-yoshgacha bo'lgan bolalarda uyqu va uyg'oqlik holati dinamikasi

Bolaning yoshi	Uyqu vaqti (soat)		Uyg'oqlik vaqti	
	Kun davomida	Tungi uyqu	Kun davomida	Uyg'oqlik holatining davomiyligi
1 yoshgacha	14,5	10-11	9,5	3,5
1,15 yosh	14	10-11	10	4
1,5-2 yosh	13	10-11	11,5	5
2-3 yosh	12	10-11	12	5,5

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar kun tartibida uyqu-ovqatlanish-uyg'oqlik ko'rinishidagi ketma-ketlik maqsadga muvofiqdir. Bola uxlab turganidan so'ng avval uning qornini, to'ydirish lozim. Chunki organizmning ovqatga bo'lgan ehtiyoji bolaning uyg'oqlik paytida faol bo'lishiga xalal beradi va ko'pincha betoqatlik, yig'iga sabab bo'ladi.

Uyquga to'ygan, qorni to'q bolaning nerv tizimi qo'zg'alishi faol holatda bo'ladi, keyinchalik esa u charchab yana oson va tez uxlab qoladi. Uyg'onish paytiga yaqinlashganda esa yana qondirilishini talab qiluvchi ovqatlanish markazi qo'zg'ala boshlaydi, uyqudan so'ng bola yana yaxshi ishtaha bilan ovqatlanadi.

Ota-ona, tarbiyachi boshchiligidagi tobora murakkablashib boruvchi faoliyatlar bilan to'ldiriladi. Bu vaqtda tinch mashg'ulotlar bilan harakatli o'yinlarning navbatma-navbat kelishiga e'tibor berish lozim.

Ko'proq ochiq havoda bo'lish bola sog'lig'i uchun foydalidir. Kunduzgi ochiq havodagi uyqudan tashqari kun tartibiga sayrlarga chikishni ham kiritish lozim. Yozda barcha o'yin va mashg'ulotlarni ochiq havoda o'tkazish, qishda esa bola kuniga 2 mahal (1,5—2 soatdan) ochiq havoda bo'lishi kerak.

Bola hayotining dastlabki 3 yili davomida kun tartibini bir necha marta o'zgartirish zarur. Bu esa bolaning to'g'ri o'sishi va rivojlanishiga yordam berishi, sog'lig'ini mustahkamlashi, asosiy xatti-harakatlar ko'nikmalari va nutqni takomillashtirish kabi asosiy vazifalarni hal etish kabilar uchun hizmat qilishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kun tartibi (3-7 yosh)

Maktabgacha yoshdagi bolalar kun tartibi ham ularning oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarni e'tiborga olgan holda tashkil etiladi. Bosh miya po'stlog'i hujayralarining bu yoshda ham oson izdan chiqishi, unda kechadigan jarayonlarning beqarorligi hamon kuzatilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kichik yoshdagi bolalarga nisbatan reflekslar tezroq hosil bo'ladi va nisbatan barqaror bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha tana a'zolari va tizimlari faoliyatlarining sutkalik davriyligi izga tushib boradi.

Bolalarni tarbiyalash vazifalari ancha kengaya boradi. Salomatlikni mustahkamlash va asosiy xatti-harakatlarni (yurish, yugurish, tirmashish, uloqtirish) yanada takomillashtirish bilan bir qatorda bolalarga to'g'ri so'zlash va to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish, ularda gigiyenik ko'nikmalarni hosil qilish, ularning ongi idrok eta oladigan narsa va hodisalar bilan ularni tanishtirish kabi vazifalar ham asosiy o'rin egallaydi. Bolalar oddiy mehnat faoliyatiga, o'z-o'ziga xizmat qilishda mustaqillikka o'rgatiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar yoshiga qarab turli guruhlariga ajratiladi. Kichik guruhni 3-4 yoshli, o'rta guruhni 4-5 yoshli, katta guruhni 5-6 yoshli, tayyorlov guruhini 6-7 yoshli bolalar tashkil qiladi.

Kichik guruhdagi bolalar kun tartibida 12-12,5 soat uyquga, shundan 2 soati kunduzgi uyquga ajratilgan. Kattaroq yoshdagi bolalar guruhlariga nisbatan ularning ovqatlanishiga, ularda endigina shakllanayotgan madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalashga ko'proq vaqt ajratiladi.

Bolalar qish paytida ochiq havoda 3-4 soat, yozda esa kun bo'yi yurishlari lozim.

Har kuni bittadan dars mashg'uloti o'tkaziladi. O'rta guruhdagi bolalar kun tartibida uxlash vaqtining davomiyligi o'zgarishsiz qolib, tashkiliy mashg'ulotlar davomiyligi esa ortib boradi va ular bir muncha murakkablashtiriladi.

Katta guruhdagi bolalarning kun tartibida uyquga 11,5 soat vaqt ajratiladi. Har kuni shu guruhdagi bolalar uchun ikkitadan mashg'ulot o'tkaziladi. Uyqu vaqtida xonani toza-havo bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir. O'yinlar bog'cha yoshidagi bolaning psixofiziologik holatiga mos bo'lishi, shuningdek, bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya ishlari ham bola yoshiga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Nonushtagacha bo'lgan vaqt, sayrlar va ayniqsa uyqudan keyin kunning ikkinchi yarmidagi qolgan bo'sh vaqtda shaklan va mazmunan turlicha bo'lgan o'yinlar tashkil etilishi lozim.

Tayyorlov, guruhida uyqu va faollik vaqtlari xuddi katta guruhdagidek bo'ladi, faqat mashg'ulotlar vaqti bir oz uzaytirilib, murakkablashtiriladi.

Sutka davomida bog'chada bo'luvchi, bolalarning kechki o'yin va sayrlari soat 19⁰⁰ ga qadar davom etadi, Soat 19⁰⁰ da bolalarga kechki ovqat beriladi va soat 20⁰⁰—20³⁰ da ular tungi uyquga yotadilar. Yozda qorong'i kech tushishi sababli barcha guruhdagi bolalar uchun tungi uxlash vaqti 21³⁰ ga suriladi. Ertalab soat 8 da (yozda 7³⁰ da) turidadi. Turish paytidan boshlab to nushtagacha bo'lgan vaqt ertalabki badantarbiya, yuz-qo'lni yuvish, yengil harakatli o'yinlardan iborat.

O'rta va katta guruhlar kun tartibida 1—2 ta'lim mashg'ulotlari 20—30 daqiqa davomida o'tkaziladi. Bular orasidagi tanaffus va ochiq havoda sayr qilish 15—20 daqiqani tashkil etadi.

Ochiq havodagi o'yin va sayrlar katta ahamiyatga ega. Toza havo bola organizmidagi almashinuv jarayonlarni faollashtiradi, o'sish va rivojlanishga ijobiy ta'sir rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqlim sharoitlari, yil fasllari, ob-havoning o'zgarib turishiga qarab bolalar ko'proq ochiq havoda bo'lishlari lozim. Har qanday sharoitda ham kunning birinchi va ikkinchi yarmida sayrlar tashkil etish zarur. Kuz, qish faslida bolalar ochiq havoda kun mobaynida 4, bahor, yoz faslida esa 6—8 soatdan kam bo'lmasliklari kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni murakkab bo'lmagan ishlarni bajarishga odatlantirish kerak. Ularni mehnatsevar qilib tarbiyalash o'z-o'ziga xizmat qilishni, xonalar va guruh uchun ajratilgan o'yin maydonchasini tartibli va ozoda saqlashda kuchlari yetadigan ishlarda ishtirok etishni, jonli burchakdagi hayvon va o'simliklarni parvarishlashni o'z ichiga oladi.

Ilmiy kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ochiq havoda ekinlarni chopish va suv qo'yish, o'rta guruh bolalari uchun kuniga 7—10 daqiqa, katta guruh bolalari uchun 15 minutdan oshmasligi kerak, xonalarni tozalash, o'yinchoqlarni tartibga

keltirishni esa 25—30 daqiqagacha yetkazish mumkin. Tungi uyqu 11—12,5 soatdan kam bo'lmasligi lozim.

Bolani oilada tarbiyalashda uning o'qishiga alohida o'rin berilishi kerak. Hatto kichik bolalar **ham kitob** o'qish hamda turli uchrashuvdan shodlanadilar. Ular kishilar, hayvonlar, o'simliklar haqidagi ertaklar eshitishni yaxshi ko'radilar. Ertaklar orqali bolalar yaxshi odamlar to'g'risida, ularning ishlari qahramonliklari haqida bilib oladilar. Ertaklarda doimo kuchli, chaqqon, adolatli, to'g'ri va mehnatkash kishi muvaffaqiyatga erishadi, ammo zolim, yomon kishilar odamlar va jamiyat tomonidan qoralanadi. Bola ertakni eshitganida hech vaqt unga befarq bo'la olmaydi, u qahramon uchun qayg'uradi, unga yomon odam bilan kurashishda yordam bergisi keladi, u hayajonlanadi, shodlanadi, hafa bo'ladi, shunday qilib unda estetik, axloqiy tuyg'ular shakllanadi. Uning o'zi o'qishni o'rganganida uning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada mustahkamlash, mustaqil va tizimli o'qish malakalarini asta-sekin tarkib toptirib borish uchun ko'maklashish zarur. Oilada maktabgacha yoshdan boshlab, bolalarni kattalarning o'qishini tinglashga, o'qilganlarni aytib borishga odatlantirish, bola bilan birga turli rasmlarni ko'rish, kitoblarni ehtiyot qilish, asta-sekin kitob yig'ish va o'z kutubxonasini boyitib borish tavsiya etiladi.

Oilada juda yaxshi an'ana-bolaning tug'ilgan kunida, bayramlarda, o'quv yilini muvaffaqiyatli tamomlaganida yaxshi kitob sovg'a qilish paydo bo'lgan. Bu bola uchun eng yaxshi sovg'adir.

Bola kitobni o'zi mustaqil o'qiy oladigan bo'lganidan keyin ota-onalarning nazorati kitobni qanday o'qilishiga, uning mazmuni o'zlashtirilishiga, kitobning qaysi joylari bolani hursand qilishi, qaysilari esa hafa qilishi, uni g'am-g'ussaga solishi mumkinligiga qaratilishi lozim. Ota-onalarning o'qishga bo'lgan bunday e'tibori bolaning his-tuyg'ulari kechinmalarining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Bola o'sishi bilan uning qiziqishlari, ma'naviy talabi o'zgaradi, kitoblar esa bolaning yangi, noma'lum ehtiyojlarini qanoatlantirish manbai bo'lib qoladi. Bolaning mustaqil o'qishida ota va onaning, aka va opalarning namuna bo'lishi eng yaxshi stimuldir. Agar oilada

kitobni sevsalar, oqshomlari birgalikda kitob o'qib, o'qilgan kitob bo'yicha fikr almashinib turilsa, unda ishonch bilan shuni aytish mumkinki, kitob oilaning kichkina a'zosi hayotiga kirib boradi.

Oila tarbiyasi muvaffaqiyatining muhim xususiyati bolalarning yosh va jinsiy xususiyatlarini ota-onalar tomonidan hisobga olinishidir. Bola faqat jismoniy jihatdan o'sib qolmay, balki voyaga yetib boradi, unda hayot tajribasi yig'iladi, o'z-o'zini anglashi ortadi, u tezroq katta bo'lishni xohlaydi. Ota-onalar bo'lsa, uning bunday intilishida kelajakni ko'rishi, asta-sekin o'smirdan bo'lajak erkak, otani, qizlaridan esa bo'lajak onani shakllantirib borishi zarur. Shuningdek, hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari, kompyuter hamda axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanishda ota-onalarning o'z farzandlariga tegishli ko'rsatmalar va maslahatlar berishni taqozo qiladi. Chunki ba'zi bolalar ertalabdan to kechqurunga qadar turli xildagi o'yinlar, nomaqbul eshittirishlar va saytlardan noo'rin foydalanishlari salbiy oqibatlariga olib keladi.

Ota-onalarga oilada nafaqat bolalar, balki qiz va o'g'il bolalar o'sayotganini, ularning jamiyatdagi ijtimoiy vazifasi hech kachon bir xil bo'la olmasligini unutmaslikni tavsiya qilamiz. Oilada yana aka-ukalar, opa-singillar o'rtasida yaxshi o'rtoqlik munosabatlarini o'rnatish muhimdir, o'g'il bolalarga singillarini ehtiyotlash va himoya qilishni, opa-singillarga esa ukalariga muloyim, sezgir muomalada bo'lishlikni, ular haqida g'amho'rlik qilishni o'rgatish kerak. Bolalar o'rtasida, bolalar bilan kattalar o'rtasida o'zaro to'g'ri munosabatlarni shakllantirish ota-onalarning muhim vazifasidir. Bola o'sishi bilan u bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar xarakterini ham o'zgartirish kerak: oddiy talablar, farmoyishlardan asta-sekin iltimos va tavsiyalarga o'tish lozim. Kattalarning bolalarga beradigan tanbehi maslahat ko'rinishida bo'lgani ma'qul: «Men sening o'ringda bo'lganimda mana bunday qilgan bo'lar edim».

Ota-onalar o'z bolalarining o'rtoqlari bilan bo'ladigan munosabatlariga alohida e'tibor berishlari kerak. O'z bolalarining do'stlari bilan qiziqadigan, ularni uyga, oilaviy bayramga taklif qilishga qarshilik qilmaydigan ota-onalar to'g'ri ish qiladilar. O'z o'g'li yoki qizining o'rtoqlari va do'stlarini bilish ota-onalarga o'z bolalarini ham yaxshiroq bilib olishga yordam beradi. Oiladayoq bolalarni asta-sekin o'sib-ulg'ayib, o'zlari oila yaratishlariga tayyorlab borish lozim. Ota-onalarning shaxsiy namunasi, mehribonligi, ulg'ayib borayotgan bolalarning mustaqil oila hayotining dastlabki alifbosini o'zlashtirib olishiga yordam berishi shubhasizdir.

Barcha katta yoshli oila a'zolari, oila va maktabning bolalarga qo'yadigan talablarida birlik bo'lishi bolalarni samarali tarbiyalashning muhim shartidir. Bola poyma-poy talablardagi ma'noni tez uqib oladi va talabchan ota bilan kamroq talab qo'yadigan buvisi yoki onasi o'rtasida hiyla ishlatishga o'tib oladi.

Tarbiyaning muvaffaqiyati, shuningdek, ota-onalarning o'z bolalarini qanday taqdirlashi va jazolashlariga, muvaffaqiyatli ishlarni qanday rag'batlantirish va bolani o'z-o'zini tarbiyalashga qanday tayyorlashiga bog'liqdir. Rag'batlantirish va jazolash shaxsning u yoki bu sifatlarini tarbiyalashda bola muvaffakiyat qozonayotgani yoki, aksincha, ota-onalar va tarbiyachilarning talablarini bajarmayotganini ko'rsatishda qo'llanadi. Mehnatdagi yutuqlarini qanday rag'batlantirish, qanday qilib jazolash masalasi bo'yicha yagona nuqtai nazar yo'q. Umuman, bolalarni tarbiyalashda jazolash qo'llamasa ham bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Tarbiya nazariyasi va amaliyotida rag'batlantirish va jazolashga nisbatan quyidagi nuqtai nazar tarkib topgan: bolalarni moddiy rag'batlantirish kerak emas; oilada bolalarni jismoniy jazolamaslik kerak. Oilada ma'qullash, maqtash, ishonch bildirish kabi xususiyatlarni rag'batlantirish vositalarini ayamay qo'llash kerak.

Ota-onalarning bolalarga tanbeh berishi, ularni xursandchilik va o'yin-kulgidan (vaqtincha) mahrum qilishi, o'z ishonchlaridan mahrum qilish va jazolashning boshqa vositalari bo'lishi mumkin.

Ota-onalarning rag'baglantirishi va jazolashi bolalarga nisbatan zo'r odob va muhabbat talab qiladi. Oilada rag'batlantirish va jazolashdan noto'g'ri foydalanish bolalarni tarbiyalashda turli qiyinchiliklar keltirib chiqarishi va hatto xatoliklarga olib kelishi mumkin. Bu qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

1. Ota-onalar oila tarbiyasining pedagogik asoslaridan yetarli xabardor bo'lmaganliklarida.
2. Oila bir butun yaxlit jamoa buzilganida.
3. Oilada ota-onalar haddan tashqari avtoritar tarbiyaga yo'l qo'yganida.
4. Bolaning kuch va imkoniyatlariga ishonishmaganlarida.
5. Ota-onalar bolalarga haddan tashqari, noo'rin so'z bilan ta'sir etishganida.
6. Bola haddan tashqari erkalatilganida.
7. Oilaning har qanday ishlaridan ozod etilganida.
8. Uning barcha o'jarliklari qanoatlantirilganida.
9. Ota-onalar bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni tushunishmaganida.
10. Bola tarbiyasidagi mas'uliyatni oilaning katta a'zolari bolaning buvasi yoki buvisiga yuklatilganda.

Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim.

-oilada bola tarbiyasiga kompleks yondoshish lozimligi;

-maktab,oila hamda maktabdan tashqari tarbiya muassasalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

-oilada bolaning ruhiy holati va kechinmalarini to'g'ri tushunish;

XULOSA

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov tashabbuslari bilan 2014-yilning mamlakatimizda “Sog’lom bola” yili deb e’lon qilinishi, xalqimiz tomonidan keng qo’llab quvvatlandi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bu mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog’lom va ma’nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustivor vazifa etib belgilangan ijtimoiy yo’naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi bo’ldi. “Ona va bola”, “Yoshlar”, “Barkamol avlod”, “Oila” va boshqa nomlar bilan atalgan yillarda amalga oshirilgan ishlar xalqimizning ezgu orzusi bo’lgan sog’lom bola tarbiyalashdek olijanob maqsadga hamohangdir. Hech shubhasiz, har birimiz farzandlarimizni sog’lom va har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularning baxt-saodati, yorug’ kelajagini ko’rishni niyat qilamiz. Oilada mehr-oqibat va o’zaro hurmat muhiti, yuksak axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni barqaror qilish, yosh oilalarni moddiy qo’llab quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona va bola salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlar o’z iqtidorini ro’yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning kundalik ro’zg’or yumushlarini engillashtirish kabi vazifalarni hal qilish zarur. Mamlakattimizda ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirishga, bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda hayotning o’zi oldimizga sog’lom avlodni tarbiyalashdek muhim sohada yangi vazifalarni qo’ymoqda. “Sog’lom bola” Davlat dasturini amalga oshirish jarayonida bu ishlarning barchasi yanada yuqori darajaga ko’tiriladi. Dasturda, avvalo, ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog’lom, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak intellektual salohiyatli, chuqur bilimli va zamonaviy dunyoqarashga ega, mamlakat taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir barkamol avlodni shakllantirish davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini ana shu maqsadlarga safarbar etishga doir keng miqyosli chora-tadbirlarni amalga oshirish ko’zda tutilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, biz tayanchimiz va suyanchimiz, g’ururimiz va iftihorimiz bo’lmish bolalarimizga, farzandlarimizga

ishonch bilan, hurmat e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat ehtirom ifodasi, deb bilamiz.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, kelajak avlod poydevori, aniqrog'i, inson shaxsini shakllantirish avvalo oiladan boshlanadi. Shu bois, oilada bola tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish hamda oilani mustahkamlash masalasi o'ta muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, oila qanchalik ahil, mustahkam bo'lsa, jamiyat shunchalik rivojlanadi. Jamiyat rivoji esa davlatning buyuk bo'lishiga olib keladi. Oilada tinchlik, totuvlik, fayzu baraka bo'lsa, jamiyat tinch, osoyishta, yurtda ma'murchilik, barqarorlik hukm suradi. Oila ma'naviyat qo'rg'oni, tarbiya maskani bo'lib, aynan oilada Vatan kelajagi kamol topadi.

Chunki, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi.

Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlari bilan yashaydi».

Shu bois, yuqorida qayd etganimizdek, bugun yurtimizda qilinayotgan barcha ishlar birinchi galda yoshlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi yo'lida amalga oshirilmoqda. Odobli va bilimdon, aqlli va sog'lom, mehribon va mehnatsevar farzand nafaqat ota-onasining, balki butun jamiyat, davlatimiz va xalqimizning bitmas-tuganmas boyligidir. Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ma'naviyat qo'rg'oni bo'lgan oilani mustahkamlash barchamizning burchimiz ekanligini zinhor yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Bola shaxsining kamol topishida oila muhiti, sog'lom turmush tarzi birinchi galda ahamiyatli. Ota-ona jamiyatning asosiy bo'g'ini – oilaning muqaddasligini dildan his etish, oilani mustahkam, barqaror va umrboqiy bo'lishida, oiladagi yuksak ma'naviy-axloqiy munosabatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini mustahkamlash hamda ijtimoiy hayotni takomillashtirish garovidir.

Oilada bolani barkamol shaxs sifatida shakllantirishda etakchi omil hisoblanadi. Bola bog'chada bo'lishiga, o'qishiga qaramay, o'z umrining uchdan ikki qismini uyda, ota-onasi bag'rida o'tkazadi. Bola uyda o'ynaydi, kitob o'qiydi, dars

tayyorlaydi, uy-yumushlarida ota-onasiga yordam beradi, televizor ko'radi, yaqinlari bilan o'z ta'surotlari haqida o'rtoqlashadi, ular bilan hamdard bo'ladi. Oilada shakllangan odatlar butun umrga qoladi. Agar ota-ona bola tarbiyalashda xato qilmasalar, bolaning qalbi ular uchun hamisha ochiq bo'ladi. Kattalar va bolalar munosabati bir-birini hamisha boyitib turishi kerak. Agar ota-onaning o'zi yaxshi va ibratli bo'lmasa, bolalarga ijobiy ta'sir qila olmaydi. Bolani tarbiyalaydigan insonlarning o'zlari tarbiyali bo'lishlari kerak, albatta.

Bola tayyor barkamol shaxs sifatida tug'ilmaydi. U mehnat va ijtimoiy hayotdagi tajribalarni o'zlashtirish jarayonida kamol topadi. Ota-onadan bolaga faqatgina irsiy belgi sifatida tashqi qiyofa – ko'z, soch rangi, gavda tuzilishi xususiyatlari emas, balki tipologik xususiyatlari ham o'tadi. Bolaning shaxsiy fazilatlari va qobiliyati ota-ona bilan bo'lgan munosabatda, shuningdek faoliyatning turli ko'rinishlari – o'yin, mehnat, o'qish, sportda shakllanib boradi. Oilada to'g'ri va asosli tarbiya inson umrining mustahkam poydevoridir. Inson fazilati, hayot go'zalligi ota-onaning farzand tarbiyasidagi uzluksiz mehnati aql farosat bilan, uzoq ish ko'rishiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. T.: O'zbekiston, 1998. - 48 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi.-T.:SHarq, 1997.-B.3–19.
4. Karimov I.A. Biz uchun halqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q.- T.: O'zbekiston, 2001. - 80 b.
5. «Ona va bola» davlat dasturi to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 5- fevral №68 qarori . - 25 b.
6. Vohidov M. Bola shaxsi va uning shakllanishi. -T.: O'qituvchi, 1972. -32 b.
7. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi.-T.: TDPU, 1999-152 b.
8. Munavvarov A.K.Oila pedagogikasi. -T:O'qituvchi,1994.–112 b.
9. Musurmonova O. Oila ma'naviyati: milliy g'urur: q O'quv qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 1999. - 200 b.
10. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: Ma'naviyat, 1998. - 160 b.